XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 2 - may VI-62-61-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumani budjetining 2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag' hisobidan ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan **jami 16 380,0 ming so'mni mablag'** ajratilsin.

Jumladan, tuman hokimligiga - tumanda olib borilayatgan tadbirlarni telekanal orqali yoritish maqsadida Surxondaryo viloyati telerdiokompaniyasiiga o'tkazish xarajatlari uchun **3 000,0 ming so'm;**

tuman hokimligiga – tuman hokimligi yig'ilishlar zaliga o'rnatilgan 1 dona kamera va 2 dona mikrafonlar uchun **13 380,0 ming so'm** ajratilsin.

3. Mahalliy budjetning qo'shimcha shakllangan mablag'lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo'naltirilishi mumkinligi belgilansin.

4. Tuman budjetining qo'shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo'naltirilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Umbarov), xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi

Sessiya raisi **K.B.Muhammadiyev**